



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

NOYADRO TOBE KOMPLEMENTLARGA ERGASHIB KELUVCHI UYUSHIQ BO'LAKLAR

Matchanov Muzaffar Ruzimboyevich
Urganch davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada gap tarkibida noyadro tobe komponentlarga ergashib keluvchi uyushiq bo'laklarning sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda gapning strukturaviy tuzilishi, uning kommunikativ mazmuni hamda komponentlar o'rtasidagi grammatik munosabatlar lingvistik nuqtai nazardan yoritiladi. Ayniqsa, noyadro komponentlarga bog'langan holda keluvchi uyushiq bo'laklarning gapning umumiy mazmunini shakllantirishdagi o'rni, ularning sintaktik tizimdagi vazifasi hamda nutq jarayonidagi funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada uyushiq bo'laklarning tobe komponentlarga ergashib kelishi natijasida yuzaga keladigan sintaktik bog'lanish turlari, ularning strukturaviy modellarini aniqlash hamda gapning aktual bo'linish jarayonidagi roli misollar asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, noyadro tobe komponentlarga ergashib keluvchi uyushiq bo'laklar gapning sintaktik tuzilishini boyituvchi muhim birliklardan biri bo'lib, ular gap mazmunining aniq va izchil ifodalanishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur masalaning o'rganilishi zamonaviy sintaksis tadqiqotlari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: noyadro komponent, tobe komponent, uyushiq bo'laklar, sintaktik tuzilish, gap strukturasi, aktual bo'linish, sintaktik bog'lanish, kommunikativ mazmun.

ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ, СЛЕДУЮЩИЕ ЗА НЕЯДЕРНЫМИ ЗАВИСИМЫМИ КОМПОНЕНТАМИ

Матчанов Музаффар Рузимбоевич

Ургенчский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье рассматриваются синтаксические особенности однородных членов предложения, следующих за ненуклеарными зависимыми компонентами. В исследовании анализируются структурные особенности предложения, коммуникативное содержание высказывания и грамматические отношения между его компонентами. Особое внимание уделяется роли однородных членов, связанных с ненуклеарными компонентами, в формировании общего смысла предложения и их месту в синтаксической системе языка. В статье также рассматриваются типы синтаксических связей, возникающих при следовании однородных членов за зависимыми компонентами, а также структурные модели их реализации. Результаты исследования показывают, что однородные члены, следующие за ненуклеарными зависимыми компонентами, являются важным средством усложнения синтаксической структуры предложения и играют значительную роль в точной и выразительной передаче содержания высказывания. Изучение данной проблемы имеет важное теоретическое и практическое значение для современной синтаксической лингвистики.

Ключевые слова: ненуклеарный компонент, зависимый компонент, однородные члены предложения, синтаксическая структура, актуальное членение, синтаксическая связь, коммуникативная структура.

COORDINATED ELEMENTS FOLLOWING NON-NUCLEAR DEPENDENT COMPONENTS

Matchanov Muzaffar Ruzimboyevich
Urgench State University, Independent Researcher

Abstract

This article explores the syntactic characteristics of coordinated sentence elements that follow non-nuclear dependent components. The study examines the structural organization of the sentence, the communicative meaning of the utterance, and the grammatical relations between its components from a linguistic perspective. Particular attention is paid to the role of coordinated elements that are connected with non-nuclear components and their contribution to the formation of the overall meaning of the sentence within the syntactic system of the language. The article also analyzes the types of syntactic relations that arise when coordinated elements follow dependent components and identifies the structural patterns in which these constructions occur. The results of the research indicate that coordinated elements following non-nuclear dependent components represent an important means of enriching sentence structure and play a significant role in expressing meaning clearly and coherently. The investigation of this issue has considerable theoretical and practical significance for modern syntactic and linguistic studies.

Keywords: non-nuclear component, dependent component, coordinated elements, sentence structure, syntax, actual division of the sentence, syntactic relations, communicative structure.

Gap tarkibida noyadro tobe komponentlarga ergashib keluvchi uyushiq bo‘laklarning sintaktik xususiyatlari deganda, avvalo, ushbu komponentlarning differensial sintaktik belgilari va morfologik xususiyatlari nazarda tutiladi (Kalandarov, 2019, 17). Tadqiqotda gapning strukturaviy tuzilishi, uning kommunikativ mazmuni hamda komponentlar o‘rtasidagi grammatik munosabatlar lingvistik nuqtayi nazardan yoritiladi. Ayniqsa, noyadro komponentlarga bog‘langan holda keluvchi uyushiq bo‘laklarning gapning umumiy mazmunini shakllantirishdagi o‘rni, ularning sintaktik tizimdagi vazifasi hamda nutq jarayonidagi funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi.


MUHOKAMA

Uyushiq tobe komponentlar, agar ular olmosh bilan ifodalangan noyadro tobe komponent o‘rnida bo‘lsa, realizatsiya qilinishi mumkin. Bu holda olmosh bilan ifodalangan tobe komponent ikki pozitsiyada, ya’ni predikatsiyalovchi (Asadov, 2018, 102) yoki tobe komponent sifatida namoyon bo‘ladi.

They love you for kindness, security.

Nothing could have moved him to gaiety or laughter.

Ushbu jumalalarda “you” va “him” elementlari “love” va “could have moved” elementlariga nisbatan subordinativ aloqaga kirishadi; oxirgi elementlar “for kindness”, “security” va “to gaiety or laughter” “you” va “him” elementlariga nisbatan subordinativ aloqada bo‘ladi. Ushbu jumalar komponentlari orasidagi sintaktik aloqalar quyidagi yunksion modelda aniq aks ettirilishi mumkin:



Yu.M.


$$\frac{NP_1}{Pnp} \cdot \frac{NP_2}{Vf} \cdot \frac{\tilde{N}D_{np2}}{Pnp} \cdot \frac{IHD_d}{P_2S} \cdot \frac{IIHD_d}{S};$$

Ko‘rsatilgan pozitsiyadagi uyushiq tobe komponentlar o‘zida bitta bog‘liq komponentga ega bo‘lishi mumkin, u sifat bilan ifodalanishi mumkin:

I’ll get you some money and different clothes.

“Some” va “different” elementlari uyushiq tobe komponentlarga nisbatan subordinativ aloqaga kiradi, ya’ni “some” elementi “money” tobe komponentiga subordinativ aloqa asosida, “different” elementi esa “clothes” elementiga subordinativ aloqa asosida bog‘lanadi. “Money” va “clothes” elementlari o‘zaro koordinativ aloqaga ega. Ushbu elementlar jumla tuzilishiga subordinativ aloqa orqali kiritiladi, ya’ni ular tegishli element bilan bog‘lanadi.

Shunga asosan, gapning yunksion modeli quriladi:



O‘rnatilgan sintaktik aloqalar asosida ushbu jumlaning komponent modeli tuzilishi mumkin. “You” elementi yadro tobe komponent sifatida yadro predikativ komponenti (I’ll get)ga nisbatan aniqlanadi va Dnp2 belgisi bilan belgilanadi; “some” elementi birinchi uyushiq bog‘liq komponentga tegishli bo‘lib D1hd belgisi bilan, “different” elementi esa ikkinchi uyushiq bog‘liq komponentga tegishli bo‘lib D2hd belgisi bilan ifodalanadi. Shunday qilib, ushbu jumlaning komponentlari va ularning morfologik xususiyatlari komponent modeli orqali quyidagicha aks ettiriladi:

$$\underline{NP}_1 \cdot \underline{NP}_2 \cdot \underline{D}_{np2} \cdot \underline{D}_{1hd} \cdot \underline{IHD}_d \cdot \underline{D}_{2hd} \cdot \underline{IIHD}_d$$


$$Pnp \quad Vf \quad Pnp \quad Pnind \quad S \quad A \quad S;$$

O‘rganilayotgan uyushiq tobe komponentlar asosiy komponentga nisbatan prepozitsiya holatida ifodalanishi mumkin:

I saw one or two of them.

A man doesn’t know the mind or heart of another.

Ushbu jumalarda “one or two”, “the mind or heart” elementlari uyushiq tobe komponentlar bo‘lib, ular o‘zaro koordinativ aloqaga kirishadi. Ushbu jumalar bitta yunksion modelga tushadi:



Ushbu jumalardagi komponentlar tarkibi bir xil, lekin ularning morfologik xususiyatlari turlicha bo‘lishi mumkin:

$$104. \underline{NP}_1 \cdot \underline{NP}_2 \cdot \underline{IHD}_d \cdot \underline{IIHD}_d \cdot \underline{D}_{np2}$$

$$Pnp \quad Vf \quad Nu \quad Nu \quad p_2Pnp;$$

$$105. \underline{NP}_1 \cdot \underline{NP}_2 \cdot \underline{IHD}_d \cdot \underline{IIHD}_d \cdot \underline{D}_{np2}$$


$$Pnp \quad Vf \quad S \quad S \quad pn_2Pnind;$$

Uyushiq tobe komponentlarning asosiy elementi noyadro predikativ komponentga nisbatan joylashishi mumkin:

106. You never take the chance to do anything new or different (The Sandcastle, 10).

“you” va “take” elementlari yadro predikativ aloqada; “the chance” elementi “take” elementiga nisbatan subordinativ aloqada, shu bilan birga “the chance” elementi “to do” elementiga nisbatan noyadro predikativ aloqada; “anything” elementi “to do” elementiga nisbatan subordinativ aloqada; “new” va “different”

elementlari bir-biriga nisbatan koordinativ aloqada bo‘lib, ular shu bilan birga “anything” elementiga nisbatan subordinativ aloqaga kirishadi. Ushbu sintaktik aloqalar yunksion modelda quyidagicha aks ettiriladi (Мухин, 1970, 68):



Yu.M.

Ushbu gapning komponent tarkibi va morfologik xususiyatlari quyidagicha tasvirlanadi:


$\frac{NP_1}{Pnp} \cdot \frac{NP_2}{Vf} \cdot \frac{\tilde{NP}_1}{S} \cdot \frac{\tilde{NP}_2}{Vi} \cdot \frac{D_{np2}}{Pnind} \cdot \frac{IHDd}{A} \cdot \frac{IIHDd}{A};$

K.M.

HD bilan ifodalangan, o‘rinda olmosh bo‘lgan uyushiq tobe komponentlar guruhi ikki elementdan ko‘p bo‘lishi mumkin:

I’ll love you in the rain, and in the snow and in the hail...

“in the rain, in the snow, in the hail” elementlari bir-biriga nisbatan koordinativ aloqaga kirishadi va ular “love” elementiga nisbatan subordinativ aloqani hosil qiladi. Bu quyidagi yunksion modelda aks ettiriladi:



Yu.M.

Ushbu jumlaning komponent tarkibi va elementlarning morfologik xususiyatlari quyidagicha aks ettiriladi:

$\frac{NP_1}{Pnp} \cdot \frac{NP_2}{Vf} \cdot \frac{D_{np2}}{Pnp} \cdot \frac{IHDd}{prS} \cdot \frac{IIHDd}{prS} \cdot \frac{IIIHDd}{prS};$

K.M.

Infinitiv bilan ifodalangan \tilde{ND} ga tobe uyushiq komponentlar


Bu holatda uyushiq komponentlar, odatda, yadro predikatsiyalovchi komponentga nisbatan subordinativ aloqa orqali bog‘langan tobe komponentlarga tobe aloqada gap tarkibiga kiritiladi (Усмонов, 2004, 106). Shu bilan birga, uyushiq tobe komponentlar turli so‘z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin, ular tobe bo‘lgan element esa infinitiv bilan ifodalanadi:

We went to dinner at Biffi’s or the Grand’s.

I learned to do smoother and better.

Ushbu jumladagi elementlar o‘rtasidagi sintaktik aloqalar to‘liq mos keladi – birinchi va ikkinchi elementlar “we, I, went, learned” o‘rtasida yadro predikativ aloqa mavjud, uchinchi elementlar “to dinner” va “to do” ikkinchi elementlarga nisbatan subordinativ aloqaga kiradi, “at Biffi’s or the Grand’s” va “smoother and better” (109) elementlari o‘zaro koordinativ aloqada bo‘lib, subordinativ aloqa asosida jumla tarkibiga kiritilgan koordinativ guruhni hosil qiladi.

Shunday qilib, elementlar o‘rtasidagi o‘rnatilgan sintaktik aloqalarni yunksion modelida quyidagicha aks ettirish mumkin:



Yu.M.

Ko‘rinib turibdiki, ushbu jumlar bitta yunksion modeliga mos keladi. Ushbu jumalarda realizatsiya qilingan elementlarning differensial sintaktik belgilari aniqlangach, ularning mos kelishi aniqlanadi, ammo ularning morfologik xususiyatlari turlicha bo‘lishi mumkin:


$$\frac{NP_1 \cdot NP_2 \cdot D_{np2} \cdot IHDd \cdot IIHDd}{Pnp \quad Vf \quad Vi \quad prSg \quad Sg; \quad \mathbf{K.M.}}$$

$$\frac{NP_1 \cdot NP_2 \cdot D_{np2} \cdot IHDd \cdot IIHDd}{Pnp \quad Vf \quad Vi \quad A \quad A; \quad \mathbf{K.M.}}$$

Infinitiv bilan bog‘langan uyushiq komponentlar o‘zida bitta tobe komponentga ega bo‘lishi mumkin (Гулыга, Шендельс, 1976, 300):

I want to see your flesh and your soul.

Bu yerda uyushiq tobe elementlar “flesh” va “soul” elementi bilan “to see” ga nisbatan subordinativ aloqaga kiradi, ammo shu bilan birga bu uyushiq komponentlar o‘zida tobe komponent “your” ni ham saqlaydi. Tobe determinantlar bilan subordinativ aloqaga kirgan holda, ushbu jumladagi uyushiq komponentlar uchta valentli bo‘lib qoladi. Bu holat ushbu jumlaning yunksion modelida aks ettiriladi:



Yu.M.

O‘rnatilgan sintaktik aloqalarga asoslanib, gapning komponent modeli tuzilishi mumkin. Bu yerda “your, your” elementlari uyushiq tobe komponentlarga nisbatan tobe komponentlar sifatida aniqlanadi, shuning uchun ular DIhd va DIhd belgisi bilan belgilanadi.

Ushbu jumlaning komponent tarkibi va morfologik xususiyatlari quyidagicha aks etadi:


$$\frac{NP_1 \cdot NP_2 \cdot D_{np2} \cdot D_{i}hd \cdot IHD \cdot D_{i}hd \cdot IIHDd}{Pnp \quad Vf \quad Vi \quad Pnps \quad S \quad Pnps \quad S; \quad \mathbf{K.M.}}$$

Infinitiv asosida amalga oshirilgan koordinativ guruh ikki yoki undan ortiq elementdan iborat bo‘lishi mumkin:

I didn’t want to drink with officers, wives and girls.

Nobody can come to see a father and a mother and sisters.

Ushbu jumladagi elementlar o‘rtasidagi sintaktik aloqalar bir xil, ya’ni ular yadro predikativ, subordinativ va koordinativ aloqalarni o‘z ichiga oladi. Bu aloqalarni yunksion modelda aks ettirsak, quyidagicha tus oladi:



Yu.M.

Jumlardagi elementlarning differensial sintaktik belgilari va ularning morfologik xususiyatlari bo‘yicha bir xil bo‘lib, odatiy tobe komponentlar ham o‘zaro mos keladi:

$$\frac{NP_1 \cdot NP_2 \cdot D_{np2} \cdot IHDd \cdot IIHDd \cdot IIIHDd}{Pnp \quad auxVf \quad Vi \quad S \quad S \quad S; \quad \mathbf{K.M.}}$$

Gerundiy bilan ifodalangan ÑD ga tobe uyushiq komponentlar


Gerundiy bilan ifodalangan ÑD ga tobe uyushiq komponentlar quyidagi jumalarda namoyon bo‘ladi:

...the captain said looking at the priest and at me.

He was incapable of imagining pain or danger.

(His) face set, looking neither to right nor left.

Ushbu jumalarda “looking”, “imagining”, “looking” elementlari gerundiy shaklida ifodalangan bo‘lib, ular “said”, “was incapable”, “set” elementlariga nisbatan subordinativ aloqaga kirishadi. Uyushiq komponentlar jumla tuzilmasiga subordinativ aloqa asosida kiritiladi va gerundial (Hypмонов, 1988, 24) elementlarga tobe pozitsiyani egallaydi. Ushbu jumalardagi elementlar orasidagi sintaktik aloqalar bir xil bo‘lib, ular bitta yunksion modelga tushadi:



Yu.M.

Ushbu jumalarning komponent tuzilmasi ham bir xil, ammo ularning morfologik xususiyatlari turlicha bo‘lishi mumkin, shuning uchun har bir jumla uchun alohida komponent modellarini tuzishimiz maqsadga muvofiqdir:

$$\frac{NP_1 \cdot NP_2 \cdot D_{np2} \cdot IHDd \cdot IIHDd}{S \quad Vf \quad Vgr \quad p_2S \quad p_2Pnp}; \quad \mathbf{K.M.}$$

$$\frac{NP_1 \cdot NP_2 \cdot D_{np2} \cdot IHDd \cdot IIHDd}{Pnp \quad cA \quad Vgr \quad S \quad S}; \quad \mathbf{K.M.}$$

$$\frac{NP_1 \cdot NP_2 \cdot D_{np2} \cdot IHDd \cdot IIHDd}{S \quad Vf \quad Vgr \quad p_2Adv \quad Adv}; \quad \mathbf{K.M.}$$

Ta’kidlash lozimki, gerundiy bilan ifodalangan uyushiq tobe komponentlarni o‘rganishda boshqa turdagi sintaktik aloqalar aniqlanmaydi, faqat yadro predikativ, koordinativ va subordinativ aloqalar mavjud.

Gerundiy bilan ifodalangan uyushiq tobe komponentlarga ega jumalarning komponent tuzilmasi bir-biridan farq qilmaydi, ammo uyushiq tobe komponentlarning morfologik xususiyatlari turli so‘z turkumlari bilan ifodalanadi: ot, olmosh, ravish va boshqalar.

Ravish bilan ifodalangan ÑD ga tobe uyushiq komponentlar

Ravish orqali ifodalangan yadro bo‘lmagan komponentga tobe uyushiq komponentlar o‘lari birga tobe bo‘lib kelgan elementga nisbatan prepzitsiyada joylashadi:


He took a step or two back.

Zoder learned more and more heavily.

He searched more or less aimlessly.

Ostidagi chizilgan elementlar bir-biriga nisbatan koordinativ aloqaga kirishadi. “back”, “heavily”, “aimlessly” elementlari mos ravishda “took”, “learned”, “searched” elementlariga nisbatan subordinativ aloqada turadi. Tagiga chizilgan “a step or two”, “more and more”, “more or less” elementlari jumla tarkibiga subordinativ aloqa orqali kiritiladi.

Shunday qilib, ushbu jumalar bir xil yunksion modelga tushadi:



Yu.M.

Ushbu jumalar komponent tuzilmasi bir xil tarzda ifodalanadi:

$$NP_1 \cdot NP_2 \cdot IHDd \cdot IIHDd \cdot D_{np2} \quad \mathbf{K.M.}$$

Ta’kidlash lozimki, uyushiq tobe komponentlarning morfologik xususiyatlari ot, son, qiyosiy darajadagi sifat vositasida ifodalanishi mumkin.

XULOSA

Bog‘lovchisiz uyushiq tobe komponentlarni aniqlashda “and” bog‘lovchisini qo‘llash tajribasi yordam beradi. Bog‘lovchisiz uyushiq tobe komponentlar orasiga “and” qo‘yish orqali ular koordinativ aloqa bilan bog‘langanligini tasdiqlash mumkin. Uyushiq tobe komponentlarni aniqlashda intonatsiya va pauzalar ikkinchi darajali ahamiyatga ega; asosiy rol bog‘lovchilarga tegishli. Bog‘lovchilar koordinativ aloqani ifodalashda ustunlik qiladi va ular ham og‘zaki, ham yozma nutqda ishlatiladi; jumlada aynan bog‘lovchilarning mavjudligi koordinativ aloqa belgisi hisoblanadi. NP2 ga tobe bo‘lib kelgan uyushiq tobe komponentlar bog‘lovchisiz bo‘lsa, ularni “and” bog‘lovchisi yordamida realizatsiya qilish mumkin. Bu bog‘lovchi faqat oxirgi uyushiq tobe komponentdan oldin ishlatiladi va sanalgan elementlar yopiq qator hosil qilishini bildiradi. “And” bog‘lovchisi oxirgi odatiy bog‘liq komponentdan oldin ishlatilganda, jumlada ikki yoki undan ortiq uyushiq tobe komponent mavjud bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Асадов Р. М. Инглиз тили содда гап қурилмаларида моновалентли ва поливалентли компонентларнинг синтаксем таҳлили: дис. ... PhD (филол. фан.). – Т., 2018. – 180 б.
2. Гулыга Е. В., Шендельс Е. И. О компонентном анализе значимых единиц языка // *Принципы и методы семантических исследований*. – М., 1976. – С. 291–314.
3. Усмонов Ў. У. Гап таҳлилига янгича ёндашув // *Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари*. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2004. – Б. 105–108.
4. Мухин А. М. Модели внутренних синтаксических связей предложений // *Вопросы языкознания*. – 1970. – № 4. – С. 68–80.
5. Каландаров А. Р. Инглиз ва ўзбек тилларида компаративлик категорияси ифодаланишининг синтактик-семантик хусусиятлари: автореф. дис. ... PhD (филол. фан.). – Т., 2019. – 25 б.
6. Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари // *Ўзбек тили ва адабиёти*. – Т., 1988. – № 5. – Б. 22–26.
7. Ўзбек тили грамматикаси. – Т.: Фан, 1976. – Т. 2. – 560 б.
8. Қурбонова М. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. – Т.: Фан, 2004. – 142 б.